UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY

COMPARATIVE LITERATURE

ISSN 3060-4559

UO‘K (UDC, УДК): 82.091

SHARQ LATIFALARINING GENEZISI VA TADRIJIY TAKOMILI[1]

Todjixodjayev Muso Muydinbayevich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD), dotsent
Namangan davlat universiteti,O‘zbekiston
E-mail: aziz.1959@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon xalqlarida yumoristik va komik mazmundagi asarlarining paydo bo‘lishi va jahon tillariga tarqalishi haqida so‘z yuritiladi. Sharq latifalari Yevropada ilk O‘rta asrlardayoq ma’lum bo‘lib, turli tantana – marosimlarda ijro etilgan. Bunday asarlar avvaliga ayrim kishilarning shaxsiy ijodi namunasi sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa, keyinchalik ular yozma adabiyotga kiritildi. Xorijiy tillarni egallashga bo‘lgan intilishlarning kengayishi xalqlarning yanada yaqinlashuvi hamda ma’naviy-ma’rifiy mazmundagi asarlarning o‘zaro ayirboshlash imkoniyatlari tezlashtirdi. Sharq latifalarining o‘tkir syujeti, sodda tuzilishi, chuqur falsafiy-ma’rifiy ahamiyati, badiiy tarovati ularning o‘zga xalqlar tomonidan tez o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ldi. Latifalar, avvalo fransuz qirollari uchun tayyorlangan. Dastlabki yozma yumoristik asarlar tarjimasi XVII asrning so‘nggi choragiga to‘g‘ri keladi. Arab xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan “Ming bir kecha” ertaklaridan keyin fransuz tiliga bir necha latifalar to‘plamlari ham o‘tkazildi. Olmon va fransuz tadqiqotchilari yaratgan latifalar to‘plamlari ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismga Si Jo‘xa ismli arab, ikkinchi qismga esa Xoja Nasriddin ismli turk latifa qahramonlari ishtirokidagi mo‘jaz hikoyatlar jamlangan.

KALIT SO‘ZLAR

Latifalar, turkiy va arab xalqlari latifalari, fransuz adabiyotshunosi Jan Antuan Gallan, Rene Base, Martin Hartmann, ustoz Nasriddin, Buadem, latifalarning Yevropaning turli tillariga tarjimalari.

Received: August 18, 2024
Accepted: September 25, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

[1] **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**
Todjixodjayev M.M. Sharq latifalarinining jahon tillariga tarqalishi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ГЕНЕЗИС И ЭВОЛЮЦИЯ ВОСТОЧНЫХ АНЕКДОТОВ

Тоджиходжаев Мусо Муйдинбаевич

доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент
Наманганский государственный университет

АННОТАЦИЯ

В данной статье говорится о возникновении юмористических и комических произведений у народов мира и их распространении на мировые языки. Восточные анекдоты были известны в Европе еще в раннем средневековье и исполнялись на различных церемониях. Такие произведения первоначально признавались образцами личного творчества некоторых людей, а позже вошли в письменную литературу. Расширение стремления к изучению иностранных языков ускорилось сближением народов и возможностью взаимного обмена произведениями духовного и просветительского содержания. Острый сюжет, простая структура, глубокая философско-просветительская значимость и художественная свежесть восточных анекдотов обусловили их быстрое усвоение другими народами. Анекдоты готовились прежде всего для французских королей. Первый письменный перевод юмористических произведений относится к последней четверти 17 века. После сказок «Тысячи и одной ночи», являющихся ярким образцом арабского фольклора, на французский язык было переведено несколько сборников анекдотов. Сборник анекдотов, созданный немецкими и французскими исследователями, состоит из двух частей: первая часть содержит чудесные истории с участием араба по имени Си Джоха, а вторая часть - героя турецких анекдотов по имени Ходжа Насриддин.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Анекдот, анекдоты тюркских, иранских и арабского народов, французский литературовед Жан Антуан Галлан, Рене Бассет, Мартин Хартман, Ходжа Насриддин, Буадем, переводы анекдотов на различные европейские языки.

Received: August 18, 2024
Accepted: September 25, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

THE GENESIS AND EVOLUTION OF EASTERN ANECDOTE

Todzhikhodzhaev Muso Muydinbaevich

Doctor of philosophy on philological sciences, (PhD)
associated professor,
Namangan State University, Uzbekistan

ABSTRACT

This article talks about the emergence of humorous and comic works in the nations of the world and their spread into world languages. Oriental anecdotes were known in Europe in the early Middle Ages and were performed at various ceremonies. Such works were initially recognized as examples of personal creativity of some people, and later they were included in written literature. In this way, works close to each other in content appeared and many traveling plots were created. But these actions were not enough. The expansion of the desire to learn foreign languages was accelerated by the rapprochement of peoples and the possibility of mutual exchange of works of spiritual and educational content. With the efforts of tourists, ambassadors and merchants with various purposes, anecdotes of Turkic, Persian and Arab peoples, along with other literary monuments, were translated into European languages. The sharp plot, simple structure, deep philosophical-educational importance, and artistic freshness of the Eastern anecdotes caused their rapid assimilation by other peoples. Anecdotes were prepared primarily for French kings. The first written translation of humorous works dates back to the last quarter of the 17th century. After the "Thousand and One Nights" fairy tales, which are a bright example of Arabic folklore, several collections of anecdotes were translated into French. Later, Eastern anecdotes were first translated from French, then directly from the original into German, English, Russian and other languages. The collection of anecdotes created by German and French researchers consists of two parts, the first part contains the wonderful stories with the participation of the Arab named Si Jokha, and the second part, the Turkish anecdote characters named Khoja Nasriddin. In the following centuries, collections created by Turkish and European scientists also appeared.

KEYWORDS

Anecdote, Turkish, persian and Arabic jokes, Jean-Antoine Galland, Rene Baset, Martin Hartmann, master Nasreddin, Buadem, translation of anecdotes into many European languages.

Received: August 18, 2024
Accepted: September 25, 2024
Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).
This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).
http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/

KIRISH

Jahon xalqlari latifalari ilk bora qachon paydo bo‘lgan va qachon ular o‘zga tillarga tarjima qilingani noma’lum. Bu borada aniq bir ma’lumot aytish imkonsiz. Zero til paydo bo‘lishi bilan kishilar nafaqat zarur ma’lumot uzatish va qabul qilish uchun undan foydalanganlar, balki, turmushda bo‘lib o‘tgan turli kutilmagan hodisalarni eslash jarayonida, shuningdek, o‘z kayfiyatlarini ko‘tarish maqsadida beixtiyor holda yoqimli suhbat-latifalar yaratganlar. Keyinchalik, bunday yoqimli manzurlarni to‘plab, so‘zlaydigan so‘zamol kishilar tomonidan maxsus janr holida og‘zaki to‘plamlar yaratilgan. Bunday yumush asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Latifalarning paydo bo‘lishining yana bir sababi, kishilar yirik-yirik badiiy asarlarning tarkibida bo‘lgan qiziqarli voqe’alarni yig‘ib, maxsus to‘plamlar yaratganlari ham ehtimol qilinadi.

ASOSIY QISM

Lekin, Sharq latifalarining Yevropa tillariga tarjimalari haqidagi dastlabki yozma ma’lumot XVII asrning so‘nggi yillariga to‘g‘ri keladi. Fransuz adabiyotshunos olimi Jan Antuan Gallan (Jean Antoine Galland) 1694 yilda Parijda, fransuz tilida “*Paroles remarquables et maximes des orientaux*” (Galland, J-A., 1694, 330.) (Sharq maxsumlarining hikmatli so‘zlari) nomli to‘plam chop ettirdi. Yevropa xalqlarini ilk bora “Ming bir kecha” ertaklari bilan tanishtirgan Gallan Nasriddin afandi va Si Jo‘xa qahramoni bo‘lgan latifalarni ham ilk bora G‘arb adabiyotiga taqdim qildi. Gallan Fransiya qirolining topshirig‘i bilan Turkiya imperiyasiga elchi vazifasida yuborilgan bo‘lsa-da, Sharq adabiy osori-atiialarini fransuzchaga o‘girish asosiy vazifasi edi. U bir necha yil davomida Turkiyada yashab, ko‘plab shahar va qishloqlarga bordi, oddiy kishilar, saroy ayonlari va olimlar davrasidagi suhbatlarda ishtirok qildi. Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyati va diniy ibodatlarini yaxshi o‘zlashtirgan muallif nafaqat turkiy xalqlar, balki arab, fors, hind va boshqa xalqlar hikoyatlarini to‘pladi. Gallan arab va fors tillaridagi qadimiy qo‘lyozma kitoblarni mutolaa qilib, eng sara asarlarni fransuzchalashtirdi.

Gallan yaratgan to‘plamga bir qator miniatyur yumoristik va hajviy hikoyatlar jamlangan bo‘lib, ular qatoriga Xo‘ja Nasriddin latifalari ham kiritilgan. Garchi latifalarning hech birida Xo‘ja Nasriddin nomi rasman yozilmagan bo‘lsa-da, Martin Xartmanning fikricha: “*...turkiy xalqlar ijodidan bo‘lmish bu qahramonni boshqalardan osonlik bilan ajratib olish mumkin*”. (Hartmann M., 1895, 20-62) Xo‘ja Nasriddin latifalari to‘plamning *“Deux recueils de bons Mots eu Turc” (Turk tilidagi hangomalarning ikki to‘plami)* deb nomlangan bo‘limda joylashtirilgan hamda to‘plamga kiritilgan latifalar haqida “*les autres ... etaient trop vulgarires on trop libres et indigues de la curiosite des honnetes – gens” (boshqalari juda qo‘pol va beadab mazmunda bo‘lib, sodda kishilarning qiziqishlari bayoni*) deya izohlangan.

To‘plam muallifning kirish so‘zi bilan boshlangan. Unda to‘plovchi ushbu kitobni yaratishga bo‘lgan sabablar haqida ma’lumotlar bergan.

Shuningdek, kitobning boshidayoq quyidagi latifalarni o‘qish mumkin:

“Bir sivri-hisorlik kambag‘al kishi qo‘shnilardan biriga ko‘zi qattiq og‘riyotganini aytib, undan maslahat so‘radi. Qo‘shni esa pinagini buzmay dedi: Mening tishim og‘riganda, sug‘urib tashlab, azobdan qutuldim. Senga ham maslahatim shu.

“Bir sivri-hisorlik kishi boltasini qulflangan sandiq ichida saqlardi. Ajablangan xotini savoliga javoban u dedi: Men boltani sichqonlar yeb qo‘ymasligi uchun sandiqqa solyapman. Xotini bu javobdan tutoqib ketdi: Siz ustimdan kulyapsizmi?! Mushuk ham bolta yeydimi?

- E, sichqonlar uch aqcha turadigan nonimizni yeb ketishadi-yu, o‘ttiz aqchalik boltani tinch qo‘yisharmidi?!” (Galland, 1684,16-17)

Asarga bo‘lgan ehtiyojning kattaligi sababli bu to‘plam 1777–79-yillar oralig‘ida Gaaganing “de Nerbelots Bibliotique Orientale” nashriyotida qayta chop etildi. (Galland, 1777-79, 231) Ushbu to‘plamlardagi hikoyatlarni X1X-XX asrlarda nashr ettirilgan to‘plamlardagi hikoyatlar bilan qiyoslanganda ularning mazmuni deyarli o‘zgarmaganini ko‘ramiz. (Stein H, 2007, 119-130)

1837-yilda Turkiyaning Istambul shahrida xalq orasida aytilib yuriladigan latifalarning katta qismi turk tilida bir to‘plam holida nashr qilindi. Bu to‘plam keyinchalik turk latifalarning jahon tillariga tarjimalarini ko‘paytirishga turtki berdi. (Stein H, 2007, 119-130; Todjixodjayev, M., 2024, 114)

Hikoyatlarning Sharq va G‘arb tillariga tarjimalari ham aynan mana shu to‘plamdan keyingi yillarda jadallashdi. Jumladan, 1857-yilda Germaniyaning Trist shahrida “*Meister Nasreddins Schwaenke und Räuber und Richter, aus dem Türkischen übersetzt von dem Camerloher und Dr. W. Prelog”* (Ustoz Nasriddin latifalari. Qaroqchilar va qozilar haqida. Turk tilidan Kamerloyer va d-r.V.Prelog tarjimalari) nomli to‘plam nashrdan chiqdi. (Camerloher W.von, Dr.W. Prelog. 1857., 160) Birinchi muallif Vilhelm fon Kamerloyer Turkiyada folklor sohasida olib borgan tadqiqotlari davomida hikoyatlarni turkiy tildagi turli kitoblardan saralab oldi. Sharq tillarini yaxshi o‘zlashtirgan mutarjim mahalliy aholi orasida yurib, bir mazmundagi ko‘plab latifalar variantlarini to‘pladi va ularni qayta ishladi. Kitob eski gotik alifbosida bosilgan. Uning birinchi qismi Nasriddin Afandi latifalaridan iborat bo‘lsa, ikkinchi qismi janob Prelog tomonidan tarjima qilingan nisbatan keng hajmli hikoyatdan tashkil topgan. Ikkinchi qismdagi hikoyatlarda muttaham qozilar, o‘g‘rilar, qaroqchilar kabi qahramonlar ishtirokida kishilarni ma’naviyat va ma’rifatga chorlovchi voqealar kitobning badiiy ziynatini oshirgan. Birinchi qismda 126 dona latifa bor. Ikkinchi qismdan esa anchayin keng bo‘lgan hikoyat o‘rin olgan. Ushbu asarning 1-qismi bugungi kungacha turli tillarda 50 martadan ziyod nashr qilindi va internet do‘konlarga sotilmoqda.

Ma’lumki, turkiy xalqlar og‘zaki ijodi maxsuli bo‘lgan latifalarda ko‘plab so‘z o‘yinlari, qochiriqlar, tarixiy voqealarga ishora qiluvchi atama, jumboqli so‘z va iboralar, faqat mahalliy aholiga tushunarli bo‘lgan atamalar, kasb-hunarga oid so‘zlar va boshqa badiiy san’atlar qo‘llangan. Ularni boshqa millatlarga tushuntirish juda mushkul. Tajribasiz tarjimon, garchi so‘z boyligi yuqori bo‘lsa-da, milliy kolorit va frazeologizmlar tarjimasida qiyinchiliklarga duch keladi. Qiyinchiliklarni bartaraf qilish jarayonida u asarni o‘ta erkin tarjima qiladi yoki uni tarjima tili xususiyatlariga bo‘ysundiradi. (Todjixodjayev, M., 2023. 195-202) Latifalar tarjimasida bunday

harakat xatarli. Mo‘jazgina latifa kattakon hikoyaga aylanadi va latifaga xos bo‘lgan muxtasarlik va mukammallik barbod bo‘ladi. Buning oqibatida Sharq latifalarining tezkor ta’siri susayib, yumoristik holat buziladi. Kamerloyer va Prelog jahon tillarini yaxshi o‘zlashtirganlari sababli latifa va hikoyatlar tarjimasini nisbatan, muvaffaqiyatli bajarganlar. Lekin ular Sharq latifalarini Yevropa xalqlari badiiy-estetik didiga moslashtirganlar. Garchi hikoyatlar tarjimasi ko‘plab tilshunoslar tomonidan muvaffaqiyatli deb topilgan, Yevropa mamlakatlarida qayta – qayta nashr qilingan bo‘lsa ham, Sharq hikoyatlariga xos bo‘lgan badiiylik zaiflashgan. Obrazli qilib aytganda, bu tarjimalar Sharq atlasidan yevropacha usulda tikilgan libosga o‘xshab qolgan. Libos, garchi juda go‘zal tikilgan bo‘lsa-da, unda sharqona latofat sezilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, bu to‘plam buyuk sharqshunos olim Raynxard Koler tomonidan yaratilgan “*Orient und Occiedent” (Sharq va G‘arb)* deb nomlangan katalogga kiritilgani bilan qadrlanadi. Katalogda o‘rta asrlardan to XIX asrning so‘nggi choragigacha (katalog muallifining so‘nggi yillarigacha) bo‘lgan davrda Sharq tillaridan Yevropa tillariga o‘girilgan eng yaxshi asarlar haqida keng ma’lumotlar beriladi. Sharqu G‘arb adabiy aloqalarini qiyosiy o‘rganishda bebaho bo‘lgan katalog zamonaviy kataloglarni yaratishda asos bo‘lgan. (Kohler R., 1890, 332)

Kitob nashr qilinganidan ko‘p o‘tmay Parijda, fransuz tilida yana bir latifalar to‘plami chop qilindi. Muallif Jan–Adolf Dekurdemansh, yuqorida tilga olingan nemischa to‘plamdan to‘liq foydalangani holda, 1876-yilda *“Les plaisenteries de Nasr eddin hodja” (Nasriddin Xo‘ja hikmatlari)* nomli to‘plam yaratdi. (Decourdemanche, J.A. 1876. 233). Oradan ko‘p o‘tmay – 1878-yilda muallif tomonidan bu to‘plam anchayin kengaytirilgan holda “Sottisier de Nasr eddin hodja, bouffon Tamerlan, suivi d’ autres faceties turques trad. sur des manuscripts inedits” (*Temurning hazilkashi Nasriddin Xo‘ja latifalari. Turk tilidagi qadimiy qo‘lyozmalardan tarjima qilingan)* nomi bilan Bryusselda chop qilindi. (Decourdemanche J.A., 1878. 290) To‘plamga 321 dona hikoyat joylangani muallifning to‘plovchilik va tarjimonlik iqtidorini ko‘rsatadi. Albatta bu hikoyatlarning barchasi ham muvaffaqiyatli yaratilgan, deb bo‘lmaydi. Ayrim

latifalar mazmuni yumorga g‘arib, ularning ayrimlari Afandi latifalari ekani ham bahstalab. Chunki, har bir latifa so‘ngida, muallif tomonidan ayrim jumlalar tavsiya etiladi.

Xo‘ja Nasriddin latifalari XIX asrning oxirgi yillarida G‘arb-u Sharq xalqlari tillariga qayta-qayta tarjima qilindi. Bularning ichida eng ahamiyatli to‘plam 1892-yilda Parijda nashr etildi. To‘plam “Les fourberies de Si Djeha, contes cabylos recueillis et par Moullier. Trad. franc et notes une etude sur Si Djeha et les anekdites qui lui sont attribuees par Rene Basset” *(Mulyer tomonidan to‘plangan Si Jo‘xa latifalari. Si Jo‘xa va latifalarni o‘rganish uchun Rene Basening fransuzcha tarjima va sharhlari)* nomi bilan jahon folklori xazinasiga qo‘shildi. (Moullier, A. 1892, 190) Ushbu kitob mualliflar Avgust Mulyer va, ayniqsa Rene Basening arab xalqlari og‘zaki ijodini izchil o‘rganishlari natijasida yuzaga keldi. Kitobdagi latifalar soni unchalik ko‘p emas, ular 60 ta hikoyatdan iborat va ular, asosan, Jazoir mamlakatida yashovchi turli arablar og‘zaki ijodi namunalaridir. To‘plamdan, shuningdek, barbar tilida so‘zlashuvchi qabilalar latifalari ham joy olgan.

Mualliflar to‘plamda faqat latifalarni kiritib qolmasdan, balki bu asarlarni qiyosiy o‘rganganlar. Ular latifalarni motiv va syujeti yaqinligiga ko‘ra uch ustunga ajratganlar. Birinchi ustun “version turque” (turkiy versiya) deb nomlangan va unga Dekurdemansh tomonidan jamlangan turk xalqi yaratgan latifalar yozilgan. Ikkinchi ustun “version arabe” (arablar versiyasi) deb nomlangan bu ustunga Misrda nashr qilingan to‘plamlardan olingan namunalar kiritilgan. Uchinchi ustun - “version berbere” (barbarlar versiyasi) esa Avgust Mulyer tarjimasidagi hikoyatlardan iborat. Turkcha, arabcha va barbarcha latifalarning motivi o‘xshash, ammo ularning syujetida ayrim o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Mualliflar shu tariqa barcha asarlarni qiyosiy taqqoslaganlar va o‘z xulosalarini bildirganlar. To‘plamda ko‘plab matn osti sharhlari ham berilgan. Ularda latifalarning boshqa xalqlar, jumladan Sharqiy Yevropa xalqlari latifalaridan namunalar bo‘lib, yuqoridagi versiyalar bilan qiyoslangan.

Mualliflardan biri Rene Base Shimoliy Afrika arab xalqlari tili, adabiyoti va shevalarini yaxshi o‘zlashtirganligi bois sahroyi arablar orasida yashab, ularning

og‘zaki ijodi namunalarini yozib olgan va qayta ishlagan holda to‘plam yaratgan. Basening bu xizmatlari nafaqat ilmiy jihatdan ahamiyatga ega, balki uning arablar orasiga kirib borib, og‘zaki adabiyot namunalarini yozib olgani, milliy an’analarini o‘rgangani Fransiya hukumatining Shimoliy Afrikadagi obro‘-e’tiborini mustahkamladi. Base materiallarini to‘plab, turli janrdagi boshqa ko‘plab asarlari ham yaratdi. Mulyer va Basening bu to‘plamlari latifalarning gensizisi haqidagi yangi farazlarni yuzaga chiqardi va Yevropada deyarli to‘xtab qolgan bu tadqiqotlarni jadal o‘rganish lozimligini isbotladi.

Ushbu maqolamizda, garchi Sharq latifalarining Yevropa xalqlari tillariga tarjimalari tarixini yoritishga uringan bo‘lsak ham, o‘zbek tilida yaratilgan birinchi latifalar to‘plami haqida qo‘shimcha qilishni lozim ko‘rdik. 1862-63-yillarda arab imlosidagi o‘zbek tilida “Xo‘ja Nasriddin latifalari” nomli to‘plam paydo bo‘ldi. To‘plam mo‘jazgina bo‘lib, 19 ta latifadan iborat. To‘plamning muallifi (yoki to‘plovchi), yozilgan manzili va soni haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Kitobning Namanganda, yagona nusxada saqlanib qolgani, ehtimol, to‘plamning o‘zi yagona nusxada yaratilgani ham jumboqli ham yoqimli. Farazimizcha, to‘plam Turkiyada (yana bir farazimiz: Ozarbayjonda) o‘zbek ziyolilari tomonidan boshqa to‘plamlardan terib olingan yoxud og‘zaki ijoddan saralangan va tarjima qilingan. Lekin shunisi aniqki, “Qutadg‘u bilig”dek mashhur pandnoma asarning aynan Namanganda topilgani va jahon madaniyati iste’moliga kiritilgani, hamda bunday asarlarning hozirda ham shahrimizda oz emasligini takrorlaganimiz holda, bu to‘plam ham Namanganda yaratilgan deb aytishga ma’naviy haqlimiz.

Ushbu to‘plam folklorshunos olim Hodi Zarif sa’y-harakati bilan 1930-yilda Toshkent shahriga olib kelingan va qo‘lyozmalar fondiga topshirilgan.

Sharq hikoyatlarini Yevropa tillariga tarjima qilish keyingi yillarda olmonzabon mamlakatlarda davom etdi. 1878-yilda avstriyalik olim Frans Verner (Franz Werner), avvalgi to‘plamlardan ijodiy foydalangani holda, Oldenburg shahrida “*Nasreddin Chodja. Ein osmanischer Eulenspiegel”.* (Werner F., 1878, 34) (Nasriddin Xo‘ja. Usmonlilar Oylenshpigeli) deb nomlangan kitob chop ettirdi.

Yevropada sharqshunos hamkasblari va Turkiyada oddiy kishilar orasida Murod Afandi nomi bilan tanilgan Verner bu to‘plamga 29 dona she’riy latifalarni jamlagan.

Latifalar to‘plamlarini yaratish olmon tilida davom ettirildi. “Reclamische Universal Bibliothek” nashriyotida doktor Myullendorf va Mexemed Tevfiq tomonidan tayyorlangan “*Die Schwänke des Nasreddin und Buadem von Mehemed Tevfiq, mit Genehmigung des Verlegers aus dem Tűrkischen űbersetzt von Dr. E. Műllendorf”* (Mehemed Tevfiqning Nasreddin va Buadem latifalari. D-r. Myullendorf tomonidan nemis tiliga o‘girilgan). (Tevfiq M., 1878, 160) To‘plamga 201 dona latifa jamlangan bo‘lib, shundan 71 donasi Nasriddin Afandi va 130 donasi Buademga “tegishli”. Barcha asarlar avvalgi to‘plamlardan tanlab olingan, ayrimlari qayta ishlangan. Doktor Myullendorf hikoyatlarni tanlab, tarjima qilgan va tartiblagani holda Mehemed Tevfiq to‘plamning nashri uchun mas’ul bo‘lgan. Kitobdagi Buadem latifalari Xo‘ja Nasriddin latifalarining o‘zlashmalari bo‘lib, avvalgi kitoblarda Nasriddin Afandi nomi bilan berilgan latifalar bu to‘plamda Buadem nomi bilan kiritilgan. Kitobning kirish qismida doktor Myullendorf va uqtirish xatida Mehemed Tevfiq to‘plamga kiritilgan latifalar haqida muxtasar so‘z yuritganlar. Ular ”Buadem” atamasiga izoh berib, bu so‘z turk tilidagi “bu adem”, (o‘zbek tilida “ushbu odam”- “bu kishi”) ma’nosida tushuniladi, deb izoh berganlar. Nasriddin Afandi latifalarida bir xil ismni takrorlamaslik uchun unga turli xalqlarda turlicha murojaat qilingani ma’lum. “Buadem” keyinchalik Yevropa tillariga ham aynan shu ko‘rinishda ko‘chib o‘tdi va latifa qahramonlarining soni ortishiga sabab bo‘ldi. (Todjixodjayev M., 2023, 195-202)

XULOSA

Shu tariqa jahon xalqlari o‘rtasida adabiyotlar ayirboshlash davom etmoqda. Sharq latifalarini to‘plash, tarjima qilish, ularning versiya hamda variantlari haqida munozaralar yuritish va qiyosiy-tarixiy tahlil qilish bugungi kunda ham davom etmoqda. Badiiy asarlar turli tillarda gapiruvchi xalqlarni birlashtiradi va o‘zaro tushunishga xizmat qiladi. Bu borada yuqorida nomlari tilga olingan olimlarning xizmatlari beqiyos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Camerloher Wilhelm.von, Dr. W. Prelog.Meister Nasreddins Schwaenke und Räuber und Richter, aus dem Türkischen übersetzt von dem Camerloher und Prelog, Trist, 1857.-p.160.
2. Decourdemanche Jean-Adolph. Les plaisenteries de Nasr eddin hodja.- Paris, 1876.- p.233.
3. Decourdemanche Jean-Adolph. Sottisier de Nasr eddin hodja, bouffon Tamerlan, suivi d’ autres faceties turques trad. sur des manuscripts inedits-Paris, 1875.- p.290.
4. HartmannMartin. Schwaenke und Schnurre im islamischen Orient.// Zeitschrift des Vereinsfür Völkerkunde.- Berlin, 1895.S.20-42.
5. Galland Antoine, Les paroles remarquables, les bons mots et les maximes des Orientaux. Traduction de leurs ouvrages en arabe, en persan et en turc. Paris, Bénard-Brunet, MDCXCIV; rééd. p.16-174.
6. GallandJean-Antoine. Paroles remarquables et maximes des orientaux.- Haag,deHerbelots Bibliotique Orientale.-1777.
7. Franz Werner. Nasreddin Hodja. Ein osmanischer Eulenspiegel.–Oldenburg, 1878.-34 S.
8. Reinhard Kohler. Orient und Occiedent. Berlin,1890.-Heidi Stein. Turkish Nasreddin Hoca’s Appearence as the Usbek Afandi 1. // Middle Eastern literatures: incorporating edebiyat. Volume 10, Issue 3, 2007, p.119-130.
9. Mehemed Tevfiq, Nasreddin Chodja und Buadem von Mehemed Tevfiq und Dr. Mullendorf.- Berlin: Reclamische Universal Bibliothek, 1878.-260 S.
10. Todjixpdjayev Muso. Немецкий востоковед Мартин Хартманн.// Raqamli texnologiyalar davrida xorijiy tillarni o‘qitishning dolzarb muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maateriallari to‘plami.-Farg‘ona, 2023. 195-202b.
11. Todjixodjayev Muso. Tarjima nazaariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma. Namangan,-2024,-114 b.

REFERENCES

1. Camerloher Wilhelmvon, Dr. W. Prelog. (1857) Master Nasreddin's Anekdotes and Robbers and Judges, translated from the Turkish by the Camerloher and Prelog.Trist, p.160.
2. Decourdemanche Jean-Adolph. (1876) The jokes of Nasreddin hodja. Paris, p.233.
3. Decourdemanche Jean-Adolph. (1875) Anecdotes of Timur's joker Nasriddin Khoja. Translated from ancient Turkish manuscripts. Paris, p.290.
4. Hartmann, Martin. (1895) Anecdotes and witties in the Islamic Orient. Journal of the Association for Ethnology. Berlin, p.20-42.
5. Galland, Antoine, (1694). The remarkable words, the witty words of the maxims of the Oriental. Translation of their works from Arabic, Persian and Turkish. Paris, Benard-Brunet, MDCXCTV, reed.p.16-174.
6. Galland, Jean-Antoine. (1777) Remarkable words of maxims of the East. Haag, deHerbelots Bibliotique Orientale. Paris, Bénard-Brunet, MDCXCIV; rééd. p.16-174.
7. Franz Werner. (1878) Nasreddin Hodja. An Ottoman Eulenspiegel Oldenburg. 34 p.
8. Reinhard Kohler. (1890). Orient and Occiedent. Berlin. Heidi Stein. (2007). Turkish Nasreddin Hoca's Appearence as the Usbek Afandi. Middle Eastern literatures: incorporating edebiyat. Volume 10, Issue 3, p.219-130.
9. Mehemed Tevfiq, (1878). Nasreddin Chodja and Buadem by Mehemed Tevfiq and Dr. Mullendorf. Berlin: Reclamische Universal Bibliothek. 260 S.
10. Todzhikhodzhaev, Muso. (2023) The German Orientalist Martin Hartmann. Actual problems of teaching foreign languages in the era of digital technologies. Collection of materials of the international scientific and practical conference.- Fergana, p.195-202.
11. Todzhikhodzhaev, Muso. (2014) Theory and practice of translation. Study guide. Namangan, p.114.